

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrası
tashabbusi bilan Pedagogika fakultetida **“Orasta qizlar”** ko'rik tanlovi

Bayonnomasi

06.03.2023y

Sariosiyo tuman

Qatnashdilar: Fakultet dekani Sh.Maxmudov ,Pedagogika fakulteti XQ maslaxat kengashi raisi I.S. Turdiyeva , Yoshlar bilan ishlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosi R.Ravshanqulova, Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim kafedrası professor –o'qituvchilari.

Kun tartibida

2023 yil 6 mart kuni Denov tadbirkorlik va Pedagogika institutining Pedagogika fakultetida Maktabgacha ta'lim kafedrasidan 14-nafar talaba qizlarimiz o'rtasida “Orasta qizlar” ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Bellashuv 2 bosqichda o'tkazilib, birinchi bosqichda Denov tadbirkorlik va Pedagogika institutining Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim qizlari hamda ikkinchi bosqichda Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti qizlari ishtirok etishdilar. Qizlar “O'zlarini tanishtirish uchun vidiorolik va taqdimotlar”, “Ashula, she'rlar hamda raqslar”, “Pazandachilik borasida”, “Qiziqarli savol-javoblar” va “Badiiy sahna korinishi (erkin mavzu)” kabi shartlarida o'z mahoratlarini korsatdilar.



Bellashuv o'ta qizg'in va ko'tarinki kayfiyatda o'tdi. Bellashuv yakunlariga ko'ra Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1MT-21 guruh talabasi Farmonova Madina 1-o'rinni oldi, Musiqa ta'lim yo'nalishi 1-MT-22 guruh talabasi Mamatqulova Nazokat 2-o'rinni oldi, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2MT-21-guruh talabasi Suvonova Guljahon 3- o'ringa sazovor deb topildilar hamda Maktabgacha ta'lim kafedrasini mudiri Sh.Suyunov homiyligida 1-o'rinni olgan qizimiz Farmonova Madinaga Duxovka diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Qolgan 12 nafar ishtirokchilar "Eng Iffatli qiz", "Eng Jozibador qiz", "Eng Zukko qiz", "Eng Zamonaviy qiz", "Eng Tashabbuskor qiz", "Eng Notiq qiz", "Eng Go'zal qiz", "Eng Pazanda qiz", kabi nominasiyalar g'olibi deb topilib, Maktabgacha ta'lim kafedrasining diplomi va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Mazkur tadbir "Sariosiyo" teleradiokanali tomonidan tasvirga olindi va namoyish etildi.



Bir so'z bilan aytganda, xotin-qizlar hamisha davlat e'tiborida, e'zozu ardog'ida. Chunki ayol o'zini baxtli his qilsa, jamiyat baxtli bo'ladi, oilada ma'naviy muhit barqarorligi ta'minlanadi.

Kafedra yig'ilishi qaror qildi:

1. "Orasta qizlar " mavzusida tadbir zamonaviy talablar darajasida o'tganligi, unda hozirgi ta'lim metodlaridan, unumli foydalanishning muhim jihatlari qamrab olingani qayd qilinsin.

2. "Orasta qizlar " mavzusida tadbir dolzarbligi, jihatdan mukammalligi hisobga olinib, ijobiy boholansin.

Ushbu qaror ijrosining nazorati Pedagogika fakulteti XQ maslaxat kengashi raisi I.S. Turdiyeva , Maktabgacha ta'lim kafedrasi professor-o'qituvchilari zimmasida qoldirilsin.

Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri :




Sh.Suyunov

XQ maslaxat kengashi raisi:



I.Turdiyeva

Kotiba:



B.Ramatullayeva



